# II. SANOAT

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10 402,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (98,4 %)ni tashkil etdi.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi,** *mlrd so‘m*







B - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,

C - Ishlab chiqaradigan sanoat,

D - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,

E - Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da**







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o’sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 0,8 % ga, Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 22,2 % ga kamayishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 18,2 % ga va Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning 11,0 % o’sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % *da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 69,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*






<u>Ishlab chiqaradigan sanoat</u>







2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 240,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 98,4 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %** *da*







**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**

2023- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 33 163 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 30,5 % ga kamaygan), 3,6 ming tonna neft (98,1 %), o‘sish sur’atlari kuzatildi. 6 753,0 tonna Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (56,0 %) kamayish, 2 739,3 ming. litr 80,0 % dan etilspirti (0,4 %) kamayish kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % *da*

**Yengil avtomobillar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Aroq**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Uzum vinosi**




**Paxtadan yigirilgan ip**




**80 % dan kam bo‘lmagan etil spirti**




**Alyuminidan elektr izolyatsiyasiz o‘ralgan sim**




**Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar,to‘rlar**




**Neft**




**Paxta chigiti**




**Paxta tolasi**




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-mart | 2022- yil yanvar-mart | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yengil avtomobillar,** *dona* | 33 163,0 | 47 697,0 | -14 534,0 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *tonna* | 4 108,8 | 9 771,1 | -5 662,3 |
| **Aroq,** *ming litr* | - | - | - |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 21 778,5 | 33 874,0 | -12 095,5 |
| **Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi,** *tonna* | 17 438,5 | 12 765,1 | 4 673,4 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalanmagan),** *t* | - | - | - |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 30,5 % ga kamaydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 17 774 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 92,6 %), 1 843 dona “Nexia T-250” (28,0 %), 11 142 dona “Lacetti-Gentra” (57,3 %), 185 dona “Spark” (7,4) 559 dona “Onix” avtomobillari ishlab chiqarildi.

### Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*(2023- yilning yanvar-mart oylarida, dona)*




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*(2023- yilning yanvar-mart oylarida)*



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 39,4 % ga kamayishi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %** *da*
*(yanvar-mart oylarida)*







**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-mart | 2022- yil yanvar-mart | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln kvt/s* | 75,6 | 19,6 | 59,0 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 2,5 | 3,1 | -0,6 |
| **Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd so‘m | - | 101,2 | -101,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-mart | 2022- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd so‘m* | 21,7 | 15,2 | 6,5 |
| **Oqava suvlarni shlami,** *mlrd so‘m* | 4,2 | 4,6 | -0,4 |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** *tonna* | - | 0,5 | -0,5 |

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 595,4 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,7 % ga,va uning jami sanoatdagi ulushi 63,4 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to‘g‘ri kelib, 63,9 % ni, shuningdek, Xo‘jaobod tumanida 6,6 % ni, Andijon shahariga 5,5 % ni, Qo‘rg’ontepa tumani 3,7 % ni, hamda Shahrixon tumani 2,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat (14,3 %) ga kamaygan. Yuqori darajada o‘sish ko‘rsatkichi Qo‘rg’ontepa (2,7 m.), Izboskan t (41,1 %), Andijon t (46,0 %), Buloqboshi (42,4 %), Xonobod (41,6 %), tumanlarida hamda Marhamat tumanida (41,1 %) ni qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2023- yilning yanvar-mart oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 294,8 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 12,4 % ni tashkil etdi.

# Andijon viloyati hududlari bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2023- yilning yanvar-mart oylarida*

| | Mlrd so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 6 595,4 | 100 | 85,7 |
| Andijon shahar | 364,3 | 5,5 | 102,1 |
| Xonobod shahar | 135,9 | 2,1 | 141,6 |
| Andijon | 164,7 | 2,5 | 146,0 |
| Asaka | 4 213,7 | 63,9 | 74,8 |
| Baliqchi | 144,7 | 2,2 | 127,7 |
| Buloqboshi | 101,7 | 1,5 | 142,4 |
| Bo‘ston | 54,1 | 0,8 | 116,1 |
| Jalaquduq | 106,9 | 1,6 | 107,7 |
| Izboskan | 94,8 | 1,4 | 147,3 |
| Ulug‘nor | 50,5 | 0,8 | 90,3 |
| Marhamat | 80,2 | 1,2 | 141,1 |
| Oltinko‘l | 113,5 | 1,7 | 117,6 |
| Paxtaobod | 96,0 | 1,5 | 44,9 |
| Xo‘jaobod | 435,1 | 6,6 | 108,8 |
| Shahrixon | 192,4 | 2,9 | 103,4 |
| Qo‘rg‘ontepa | 246,9 | 3,7 | 2,7 m. |

## Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2023- yilning yanvar-mart oylarida*

| Hudud | Mlrd so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 10 402,5 | 100 | 98,4 |
| Andijon shahar | 1 697,3 | 16,3 | 97,7 |
| Xonobod shahar | 620,1 | 6,0 | 103,7 |
| Andijon | 219,3 | 2,1 | 116,8 |
| Asaka | 4 477,0 | 43,0 | 76,3 |
| Baliqchi | 571,3 | 55,5 | 98,4 |
| Buloqboshi | 121,3 | 1,2 | 103,4 |
| Bo‘ston | 109,0 | 1,0 | 101,0 |
| Jalaquduq | 293,3 | 2,8 | 107,3 |
| Izboskan | 114,3 | 1,1 | 98,6 |
| Ulug‘nor | 136,2 | 1,3 | 97,6 |
| Marhamat | 174,2 | 1,7 | 103,1 |
| Oltinko‘l | 176,5 | 1,7 | 102,3 |
| Paxtaobod | 210,2 | 2,0 | 80,6 |
| Xo‘jaobod | 476,8 | 4,6 | 101,3 |
| Shahrixon | 487,6 | 4,7 | 111,4 |
| Qo‘rg‘ontepa | 518,2 | 5,0 | 104,9 |

**Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati,** % *da*




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Andijon t (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 16,8 %), Shahrixon (11,4 %), Jalaquduq (7,3 %), Qo'rg'ontepa (4,9 %) Xonobod sh (3,7 %), Buloqboshi (3,4 %) Marhamat (3,1 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %** *da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,0 % ni) hamda Andijon shahri (16,3 %), Xonobod shahri (6,0 %), Baliqchi (5,5 %), Qo‘rg‘ontepa (5,0 %) va Xo‘jaobod (4,6 %) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Bo‘ston (1,0 %), Izboskan (1,1 %) hamda Buloqboshi (1,2 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (12 854,0 ming so‘m), Xonobod shahar (13 748,6 ming so‘m) va Xo‘jaobod tumanida (4 057,5 ming so‘m) tuman va shaharlarda o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3 123,4 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 980,3 ming so‘m bo‘lgan holda, Asaka tumanida 12 098,0 ming so‘mni, Xo‘jaobod tumanida 3 703,3 ming so‘mni, Qo‘rg‘ontepa tumanida 1 090,2 ming so‘mni, Ulug‘nor tumanida 801,0 ming so‘mni, Andijon shahrida 776,4 so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2023- yilning yanvar-mart oylarida, ming so‘m)*

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 10 402,5 | 6 595,4 |

**Andijon viloyati**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 1 697,3 | 364,3 |

**Andijon sh.**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 620,1 | 135,9 |

**Xonobod sh.**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 219,3 | 164,7 |

**Andijon**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 477,8 | 4 213,7 |

**Asaka**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 571,3 | 144,7 |

**Baliqchi**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 121,3 | 101,7 |

**Buloqboshi**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 109,0 | 54,1 |

**Bo‘ston**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 293,3 | 106,9 |

**Jalaquduq**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 114,3 | 94,8 |

**Izboskan**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 136,2 | 50,5 |

**Ulug‘nor**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 174,2 | 80,2 |

**Marhamat**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 176,5 | 113,5 |

**Oltinko‘l**

| Sanoat mahsulotlari | Истеъмол махсулотлари |
|---|---|
| 210,2 | 96,0 |

**Paxtaobod**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 476,8 | 435,1 |

**Xo‘jaobod**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 487,6 | 192,4 |

**Shahrixon**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 518,2 | 246,9 |

**Qo‘rg‘ontepa**

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*(2023- yilning yanvar-mart oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 468,8 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) Izboskan (96,7 %), Shahrixon (87,0 %), Baliqchi (84,2 %), hamda Andijon (83,7 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Asaka tumani (3,2 %), Andijon shahar (30,3 %) va Marhamat tumanida (37,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 6 605 dona sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 680 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 25,4 foizi) Andijon shahriga, 676 tasi (10,2 %) Andijon tumaniga, 614 tasi (9,3 %) Asaka tumaniga, 497 tasi (7,5 %) Shahrixon tumaniga, 441 tasi (6,7 %) Xo’jaobod tumaniga, 432 tasi (6,5 %) Baliqchi tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.




2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 240 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 56 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 23,3 %) Andijon tumanida, 40 tasi (16,7 %) Andijon shaharda, 22 tasi (9,2 %) Asaka tumanida, 18 tasi (7,5 %) Oltinko‘l tumanida, 16 tasi ( 6,7 %) Shahrixon tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*(2023- yil 1-aprel holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Andijon sh (1 680 ta), Andijon t (676 ta), Asaka (614 ta), Shahrixon (497 ta), Xo‘jaobod (441 ta), Baliqchi (432 ta), Oltinko‘l (351 ta) hamda Izboskan tumanlari (290 ta) qayd etildi.







2023-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida esa Jalaquduq (280 ta), Marhamat (278 ta), Qo‘rg‘ontepa (246 ta), Buloqboshi (236 ta), Paxtaobod (223 ta), Bo‘ston (135 ta) va Xonobod shahrida (118 ta) hamda Ulug‘nor tumanlarida (108 ta) faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar qayd etildi.

# STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indekslari** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir; Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash** Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliylashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.